

QUSHLAR OBRAZINING O‘ZBEK VA NEMIS SHE‘RIYATIDAGI RAMZIY TALQINI**Ma’diyeva Adiba Dovudovna**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Jahon adabiyoti kafedrası

katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek va nemis she‘riyatida qushlar obrazi poetik timsol sifatida qanday talqin qilinishi tahlil qilingan. Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Xosiyat Rustamova, Zebo Mirzo, Nora Gomringer, Jan Vagner, Monika Rink va Anja Kampmann ijodidagi qushlar tasviri estetik va falsafiy nuqtai nazardan o‘rganilgan. O‘zbek she‘riyatida qushlar asosan sevgi, hijron, tabiat uyg‘onishi va inson kechinmalarini ifodalasa, nemis she‘riyatida ular vaqt, tafakkur va cheksizlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: qushlar, she‘riyat, ramz, ozodlik, falsafa, tabiat

Adabiyotda tabiat tasvirlari muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Jumladan, qushlar obrazi shoirlarning ijodida ozodlik, orzu, ijodiy uyg‘onish va inson ruhiyatining ichki kechinmalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Ularning poetik talqini madaniy va geografik xususiyatlarga ko‘ra turlicha namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek va nemis she‘riyatidagi qushlar obrazi estetik, ramziy va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Qushlar obrazi yordamida o‘zbek shoirlari ozodlik, yuksaklikka intilish va orzu-havaslarini ifoda etadilar. Ushbu tahlilda qushlar obrazining estetik, ramziy va falsafiy qirralari tadqiq qilinadi. Jumladan, Sirojiddin Sayyidning ushbu misralarida qushlar obrazi hayotning qayta tiklanishi, tabiatning ijodiy uyg‘unlik ramzi sifatida talqin qilingan.

Bahor. Qaldirg‘ochlar xas, loy cho‘qiydi,

o‘rgimchak yangi bir gilam to‘qiydi.

Gulzor tepasida bir mullo to‘rg‘ay

Bulbul bilan gulga nikoq o‘qiydi.¹

She‘rdagi qushlar obrazi bahorning uyg‘onishi, hayotning yangilanishi va tabiatning uyg‘unligidan darak beradi. Qaldirg‘och – mehnatsevarlik timsoli bo‘lib, bahorda hayotning qayta boshlanishini ifodalaydi. To‘rg‘ay va bulbul esa she‘riy an‘anada osmon va yer o‘rtasidagi bog‘liqlik, ilohiylik va go‘zallik timsollari bo‘lib kelgan. To‘rg‘ayning "mullo" sifatida tasvirlanishi bahorning ramziy nikohi, tabiatning uyg‘unligi va sevgi, hayotning muqaddasligini ifodalaydi. Bu obrazlar orqali she‘rda bahor nafaqat tabiatning, balki insoniy his-tuyg‘ularning ham jonlanishi sifatida talqin qilingan.

Iqbol Mirzo ijodida qushlar obrazi inson his-tuyg‘ularini, hayot falsafasini poetik talqinda ifoda etadi. Uning “Bulbul” she‘rining debochasida bulbul va eman yaprog‘i obrazlari insonning ruhiy kechinmalari va tabiat o‘rtasidagi bog‘lanishni estetik mazmunda yoritadi:

Bir bulbul sayradi tun bo‘yi giron,

Eman yaprog‘idek dilgir, jonsarak.²

¹ Саййид С. Кўнгил соҳили. – Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. Б. 21

² Иқбол Мирзо. Агар жаннат кўкда бўлса... Шеърлар. - Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти, 2010.- Б. 28

She'rdagi bulbul obrazi mumtoz va zamonaviy she'riyat an'analariga tayangan holda iztirob, hijron va qalb nidosi ramzi sifatida gavdalanadi. "Tun bo'yi giryon" – bulbulning cheksiz dardi, alam bilan yonishi ifodasi bo'lsa, keyingi misra tashvish va beqarorlikni ta'kidlaydi.

Ko'zga uyqu parda tortgan pallada

Bir bulbul bo'zladi dilgir va giryon.³

She'r davomidagi bu misralar tush va haqiqat orasidagi noaniqlikni yaratadi, bulbulning bo'zlashi esa sevgining, ichki kechinmalarining og'riqli hamda abadiy davom etishini anglatadi. Shoir mahorati she'rdagi tasviriy vositalarning aniq va hissiy ifodalanganligi, obrazlarning bir-birini to'ldirishi orqali namoyon bo'lgan.

Xosiyat Rustamova ijodida qushlar obrazini inson ruhiyatining murakkab qirralari, ozodlikka intilish va tabiat bilan uyg'unlikni chuqur estetik tarzda ifoda etish vositasi sifatida namoyon qiladi. Jumladan, uning "Suvrat" she'ridagi

Dunyodan qochmoqqa urinar hurkib,

daraxtni lol etib uchib ketar qush.⁴

misralarida qushning hurkishi insonning ichki beqarorligi, xavotir va dunyo tashvishlaridan xalos bo'lishga bo'lgan intiluvchanligini ramziy ravishda aks ettiradi. Uning "daraxtni lol etish" ifodasi uning tuyg'ularidagi kuchli ishtiyoqni ko'rsatadi. Qushning parvozga intilishi insonning cheksiz ozodlik va o'zini topish istagini, hayot sinovlaridan xalos bo'lish orzusini poetik tarzda ifoda etadi. Shoir bu metaforik tasvir orqali qushning hurkakligi bilan inson qalbidagi bezovtalik va yolg'izlik hissini mahorat bilan uyg'unlashtirgan.

Zebo Mirzo ijodida qushlar obrazi harakat, ozodlik, vaqtning o'tkinchiligi va inson xotiralarining mustahkamligini ramziy tarzda ifoda etadi:

Turnalarning izi qoldi ko'k yuzida,

kapalaklar uchib-qo'ndi birin-birin.⁵

Turnalarning osmonda qolgan izlari hayot yo'lining davomiyligi, orzu-umidlarning barqarorligini ramzlaydi. Ularning iz qoldirishi - hayotdagi ta'sir va xotiralarining uzluksizligini tasvirlaydi. Kapalaklarning uchib-qo'nishi nafislik, o'zgaruvchanlik va hayotning o'tkinchiligini ifoda etadi. Bu obrazlar insonning o'tmish xotiralarini va kelajakka bo'lgan intilishlari uyg'unligini poetik tarzda aks ettiradi.

Nemis zamonaviy she'riyatida qushlar obrazi insonning ruhiy kechinmalari, tabiat bilan munosabati, vaqtning o'tishini his qilish kabi mavzularni yoritishda muhim ramziy ahamiyatga ega. Qushlarning ko'k nurga cho'mishi orqali Nora Gomringer cheksizlik, tiniqlik va xotirjamlikni estetik ramz sifatida ko'rsatadi:

Der Vögel, in ein blaues Licht getaucht,

ein albatros, der über uns hinwegzieht, eine möwe.⁶

Moviyrang yog'duga cho'mgan qushlar parvozi,

Goh lochin misoli tepamizdan uchib o'tar chag'alay.

(Tarjima bizniki – M.A.)

Albatros erkinlik, cheksizlik timsoli sifatida odamlarda ilhom uyg'otadi, ularni oliy qudratni his qilishga chorlaydi. Moviy yog'duga cho'mgan qushlar tasviri samoviy kenglik va yorug'lik bilan uyg'unlashgan, shoir osmon bilan musaffolik kasb etgan obrazni yaratadi. Shoir minimal tasvir orqali cheksiz osmon, suv, erkinlik va vaqt mavzularni poetik shaklda mujassam etgan.

³ Иқбол Мирзо. Агар жаннат кўкда бўлса... Шеърлар. - Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти, 2010.- Б. 28

⁴ Рустамова Х. Нажот. Шеърлар.- Тошкент: Маънавият, 2003.- Б. 88

⁵ Зебо Мирзо. "Нур кукунлари.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. Б. 45

⁶ Gomringer N. Gottelanbieterin.- Berlin und Dresden: Verlag Volland und Quist, 2020. – S. 57

Yan Vagner she'rida qushlar inson hissiyotlari va fikrlarining o'zgaruvchanligini ramziy tarzda ifodalaydi. Jumladan uning

Möwen übt en sich in variationen
über die heiserkeit.⁷

Chag'alaylar raqsga tushar

Quv-quvlashib o'z kuylarida. (Tarjima bizniki – M.A.)

misralarida chag'alaylar obrazi hayotning doimiy harakati va o'zgaruvchanligini ifodalaydi. Ular shunchaki qush emas, balki shovqin, beqarorlik, erkinlik va tabiiy ritm timsoli. "Raqsga tusharlar" iborasi ularning havodagi tartibsiz, ammo o'ziga xos uyg'unlikka ega harakatlarini aks ettiradi. "Quv-quvlashib o'z kuylarida" esa ularning betinim, ba'zan bo'g'iq, ba'zan jarangdor ovozlari orqali tabiatning jonli musiqasini yaratishini anglatadi.

Shoir chag'alaylarning oddiy sayrashini emas, balki ularning ovozlardagi xilma-xillikni, harakatlaridagi cheksizlikni his qilishga undaydi. She'r mayda detallarni emas, hissiyot va jarayonni tasvirlaydi. Shu bois u samimiy, jonli va tabiiy.

Anya Kampmann esa qushlarning mayin sayrashini inson va tabiat o'rtasidagi chuqur uyg'unlikni poetik tarzda aks ettiradi:

die feuchtigkeit der hecken am abend,
der langsame gesang der vögel.
Tasten.⁸

tun og'ushida nam tortgan butalar uzra,

yangraydi qushlarning mayin kuylari.

Tarovatin his etdingmi?

(Tarjima bizniki – M.A.)

Bu parchada tabiatning sokin tun tasviri orqali insonning ichki sezgilari va idroki bilan uyg'unlik hosil qiladi. Unda kechki namlik, qushlarning sokin ovozlari va sezilmas harakatlar orqali osoyishtalik hissi yaratilgan. She'r o'quvchini faqat tasvirlangan manzarani ko'rishga emas, balki uni his qilishga, kechki sokinlikni yurakdan tinglashga undaydi. Shoir tasvirni ortiqcha detallar bilan yuklamay, minimalizm orqali kuchli poetik kayfiyat bergan.

Monika Rinkda ham qushlar tasviri ajoyib.

Ich blickte zum Himmel empor.

Dort waren große Vögel,

zogen ihre Linien, bogen ab.⁹

Samoga tikildim boshim ko'tarib,

Ulkan qushlar borliqni tutib

uchishardi chiziq tortib, qayrilib.

(Tarjima bizniki – M.A.)

She'rida osmon va qushlar harakati orqali inson hayoti va vaqtning cheksiz harakati poetik ifodalangan. Shoir qushlarning chizgan yo'llarini kuzatar ekan, insonning hayot yo'li va o'zgarishlar haqida fikr yuritadi. Qushlarning burilishi hayotda uchraydigan tasodif, kutilmagan burilishlarni aks ettiradi. Bu poetik uslub orqali tabiat va inson tafakkurining uyg'unligi, hayotning davomiyligi va o'tkinchiligi ramziy tarzda yoritilgan.

O'zbek va nemis she'riyatida qushlar obrazi ozodlik, yuksaklik va inson ruhiyatining ramzi sifatida gavdalanadi. Biroq ularning poetik talqinlari geografik muhit va madaniy an'analar ta'sirida shakllangan. Nemis she'riyatida chag'alay, albatros, turna kabi qushlar suv va osmon bilan bog'liq bo'lib, vaqtning o'tishi, inson tafakkuri va hayotning betinim harakatini aks ettiradi. Masalan, Yan Vagner chag'alaylar orqali hayotning beqarorligini, Nora Gomringer albatros orqali cheksizlikni, Monika Rink turnalar orqali vaqt va xotiralarning izchilligini tasvirlaydi. O'zbek

⁷ Wagner J. Regentonnenvariationen.- München: Hanser Berlin im Carl Hanser Verlag, 2014. – S. 37

⁸ Kampmann A. Proben von Stein und Licht. Carl Hanser Verlag. München., 2016.s-69

⁹ Rinck M. Honigprotokolle. Gedichte.- Steinmeier, Deiningen: Druck & Bindung. 2. Auflage, 2014. S. 8

she'riyatida esa bulbul, qaldirg'och, turna, musicha kabi qushlar ishq, hijron, insoniy kechinmalar va ijodiy uyg'onish ramzi sifatida qo'llaniladi. Bulbulning sharq mumtoz adabiyotidagi o'rni muhim bo'lib, u Navoiy, Fuzuliy, Hofiz an'analarida ishq va iztirob timsoli sifatida ishlatilgan. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham Iqbol Mirzo, Sirojiddin Sayyid, Xosiyat Rustamova va Zebo Mirzo bulbulni qalb iztirobi va sevgi timsoli sifatida tasvirlaydi, qaldirg'och esa bahor va ijodiy uyg'onish belgisi bo'lib kelmoqda. Shu bois, o'zbek she'riyatida qushlar hayot falsafasi va inson hissiyotlari bilan bog'liq, nemis she'riyatida esa ular falsafiy va abstrakt ramz sifatida talqin qilinadi.